

“O‘zyo‘lloyiha” LQI DUK “Avtomobil yo‘llarini loyihalash” bo‘limining malakali mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi A-380 "G‘uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" avtomobil yo‘lining 150-228 km qismini rekonstruksiya qilish" loyihasi ish hajmlar qaydnomalari tekshirilmoqda kerakli tavsiyalar berish ishlari amalga oshirilmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki 1997 yilda Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlik va integratsiyani rivojlantirish uchun Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturini boshladi. Dastur 11 ta davlatning (Afg‘oniston, Ozarbayjon, Xitoy Xalq Respublikasi, Gruzziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Respublikasi, Mo‘g‘uliston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston) hamkorligida amalga oshirilmoqda. Dasturdan ko‘zlangan maqsad Markaziy Osiyo davlatlarining bir qator yo‘nalishlarda mintaqaviy va ko‘ptomonlama hamkorligini yanada kengaytirishga qaratilgan.

Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi (MOMIH)ga a‘zo davlatlarining ko‘pchiligi dengizga chiqa olmaydi va deyarli faqat quruqlikdagi transport orqali savdo qiladi. Ushbu transport yo‘laklarini zamonaviy talab darajasiga olib chiqish uchun kerakli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bois bu boradagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.



